

Biz xato o'yladik



14:30 / 08.05.2022 3888

Insonlar, Solihga kufr keltirib, unga iymon keltirmadilar. Solih ularga va'z qilib, butlarga ibodat qilishdan qaytarganida, shunday dedilar: «Ey Solih! Juda yaxshi bola eding, juda aqlli bola eding, biz seni, insonlarning boyi va ulug'laridan bo'ladi, deb o'ylardik. Biz seni, falonchi va pistonchilardek bo'ladi, der edik. Lekin hech biri bo'lmadi. Sen tengi aqlsiz bolalar ham bugun ulug' odamlar bo'lib yetishishdi. Sen ey Solih, kambag'allik yo'lini tanlading, biz sen haqingda fikrimiz xato bo'lib chiqdi, sendan kutgan umidlarimiz chippakka chiqdi. Bechora otang, sendan yaxshilik ko'rmadi. Bechora onang, senga qilgan mashaqqatlari zoe ketdi! Solih bularning barchasini eshitdi va qavmi (ning holi)ga afsuslandi. Solih qavm oldidan o'tsa, ular: «Alloh Solihning otasiga rahm qilsin! O'g'lidan ayrildi», deyishar edi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

